

MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHI BO‘YICHA ZAMONAVIY ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich

UrDU, stajyor o‘qituvchisi

E-mail: dunyouz@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqa barqaror rivojlanishining zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish tushunchasining evolyutsiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mezonlar o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi. Turli olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, mintaqaviy rivojlanishda resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli muvozanatni ta’minlash zarurligi ko‘rsatildi. Shuningdek, barqaror rivojlanish omillari, tamoyillari va shartlari tizimli ravishda umumlashtirildi. Natijalar asosida mintaqa rivojlanishi iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat uyg‘unligiga asoslanishi aniqlandi. Mualliflik yondashuvi orqali barqaror rivojlanishning kompleks modeli taklif etildi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy muvozanat, ekologik barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish, resurslar samaradorligi, innovatsiya

Аннотация

В статье был проведён анализ современных научно-теоретических подходов к устойчивому развитию регионов. Рассмотрена эволюция понятия устойчивого развития и обоснована взаимосвязь экономических, социальных и экологических факторов. Проведён сравнительный анализ взглядов различных учёных, показана необходимость рационального использования ресурсов и обеспечения долгосрочного баланса развития регионов. Также систематизированы факторы, принципы и условия устойчивого развития. Результаты показали, что развитие региона должно основываться на сочетании экономического роста, социальной стабильности и экологического равновесия. Предложен авторский подход к комплексной модели устойчивого развития.

Ключевые слова: устойчивое развитие, региональное развитие, экономическое равновесие, экологическая устойчивость, социальное развитие, эффективность ресурсов, инновации

Abstract

This article analyzed modern scientific and theoretical approaches to sustainable regional development. The evolution of the concept of sustainability and the interconnection of economic, social, and environmental factors were examined. A comparative analysis of different scholarly views was conducted, highlighting the importance of rational resource use and long-term balance in regional development. The study also systematized key factors, principles, and conditions of sustainability. The findings indicated that regional development should be based on the integration of economic growth, social welfare, and environmental balance. An author's approach to a comprehensive model of sustainable development was proposed.

Keywords: sustainable development, regional development, economic balance, environmental sustainability, social development, resource efficiency, innovation

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barqaror darajasini ta'minlashda mintaq va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati muhim manba sanaladi. Bunda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish, uning ustuvor sohalarini aniqlash asosiy masala bo'lib, ushbu jarayon mavjud omil hamda manbalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, mintaqalar barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim mezon sifatida uning tarmoqlariga e'tibor qaratishimiz zarur. Jumladan, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi hamda xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishiga erishish asosida umumiy mintaq iqtisodiyotining barqarorligi ta'minlanadi.

Mintaqalar barqaror rivojlanishi bilan bog'liq izlanishlarda gohida ushbu tushunchaning muqobil varianti sifatida muvozanatli rivojlanish tushunchasi ham qo'llaniladi. Odatda, barqaror rivojlanish to'g'risida gapirganimizda mintaqadagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy o'zgarishlarinigina emas, keng mazmuni tushunishimiz zarur. Bunda, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik masalalar yaxlit holda qaraladi. Dastlab, barqaror rivojlanish tushunchasi zamirida ekologik masalalar e'tiborga olingan. Keyinchalik esa, mazkur tushuncha zamirida iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatlar ham e'tiborga olinib boshlagan.

Haqiqatdan ham, mintaqalar barqaror rivojlanishi resurslar va ularning samarali qo'llanilishi bilan bog'liqdir. Bu esa, birinchi navbatda atrof-muhitga bog'liqlikni ifodalaydi. Shunday bo'lsada, resurslarni taqsimlash, ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotning fundamental masalasi sanalgan cheklanmagan ehtiyojlarni qondirish jarayoni bilan bog'liqdir. Demak, barqaror rivojlanish tushunchasi zamirida ekologik masalalar qatori iqtisodiy-ijtimoiy mezonlarga ham e'tibor qilishimiz zarur.

So'nggi o'n yilliklarda rivojlangan mamlakatlar milliy darajada barqaror rivojlanishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Yaponiya milliy barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda katta tajriba to'pladilar. Bu masala doimiy ravishda BMT, Yevropa Kengashi, JST, Rim klubi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar, shuningdek, ko'plab ilmiy jamg'armalarning diqqat markazida turadi¹.

ADABIYOTLAR SHARHI

Biz barqaror rivojlanish tushunchasini ilmiy-nazariy mohiyatini keng ma'noda ochib berishdan avval, ushbu tushunchaning dastlabki variantiga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, "Barqaror rivojlanish" 1987-yildan boshlab qo'llanila boshlangan va Bruntland komissiyasi ma'ruzasida bu iboraga quyidagicha ta'rif berilgan: "Barqaror rivojlanish bu - shunday rivojlanishki, u hozirgi davr ehtiyojlarini qondiradi va shu bilan birga, kelgusi avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga solmaydi"². Boshqa bir tadqiqotlarda ham barqaror rivojlanishga an'anaviy yondashuv

¹ Вдовин С.М., Гуськова Н.Д., Неретина Е.А., Иванова И.А. Прогнозирование устойчивости развития региона на основе экономико-математического моделирования // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. №9, 2016. С. 8-27.

² Холматов С.Х. Барқарор ривожланиш индикаторлари ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш тушунчалари таҳлили // <https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4AnX4ja2Uw4P9o8xHk0JCi0jfcKTr2qQ.pdf>.

orqali ta'rif berilgan. Jumladan, O.L.Kuznesov, P.G.Kuznesov, B.E.Bolshakovlar barqaror rivojlanishni tabiat-jamiyat-inson tizimidagi tirik tabiatning global evolyutsiyasi qonunlari va insoniyatning tarixiy rivojlanish qonunlariga mos keladigan rivojlanish, deb hisoblashadi¹. Rio-de-Janeyroda 1992-yilda bo'lib o'tgan konferensiyada barqaror rivojlanishga o'tish bo'yicha milliy dasturlarni yaratish xalqaro kelishuvlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlarga ko'ra, barqaror rivojlanishga o'tish tabiiy ekotizimlarni tiklashga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ushbu hujjatda barqaror rivojlanishga o'tish asosan mintaqaviy darajada amalga oshirilishi kerakligi nazarda tutilgan².

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, barqaror rivojlanishga o'tish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda jamiyatning o'z-o'zini maqsadli tashkil qilishini asta-sekin ta'minlashni anglatadi. Bu ma'noda barqaror rivojlanish iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat bilan xarakterlanadi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda barqarorlik konsepsiyasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni qamrab oladi. Kelajak avlodlar o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni, shuningdek, endogen imkoniyatlardan foydalanishni muvozanatli hisobga olish talab etiladi. Barqaror mintaqaviy rivojlanish jarayoni bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: institutsional muhit, siyosat va tashabbuslar, endogen resurslardan sinergik foydalanish va kommunikatsiyalar³.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi kabi an'anaviy tarzda keltirilgan ta'rif keng tarqalgan. Mintaqaning barqaror muvozanatli rivojlanishi deganda, federalizm tamoyillariga asoslangan holda milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirishga hissa qo'shadigan, shaxslar va jamiyat manfaatlarini uyg'unligi asosida uzoq muddatda hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish uchun mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik quyi tizimlarining muvozanatli rivojlanishi tushuniladi⁴. Fikrimizcha, mazkur tavsifda barqaror rivojlanishning uch jihatini qamrab olingan bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ham nazarda tutilgan. Shu bilan birga, muallif shaxs va jamiyat o'zaro uyg'unligini ham qamrab olgan. Demak, mintaqa barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ustuvorlik qaratishimiz zarur.

Jumladan, "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi" bu barqarorlikni, xususan, iqtisodiy tizimning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarining barqarorligini o'z ichiga oladi. Barqarorlik asosi iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatdan iborat bo'lib, u ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy tizimning samarali ishlashi va

¹ Силова Е.С. К проблеме устойчивого развития региона // Вестник Челябинского государственного университета. 2017. № 5 (401). Экономические науки. Вып. 57. С. 7-14.

² Силова Е.С. К проблеме устойчивого развития региона // Вестник Челябинского государственного университета. 2017. № 5 (401). Экономические науки. Вып. 57. С. 7-14.

³ Ибрагимова З.А. Фундаментальные принципы устойчивого развития региона // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2024. Вып. 1. С.99-108.

⁴ Факторы устойчивого развития регионов России: монография. Кн. 8 / Бакирова А.М., Буланов А.Ю., Гервасьев М.А. [и др.] // Но восибирск, 2010.

rivojlanishining eng muhim sharti sanaladi¹. Fikrimizcha, mazkur tadqiqotning e'tiborli jihati yuqorida ta'kidlaganimizdek, barqaror rivojlanish zamirida barcha mezonlar e'tiborga olinmoqda. Ya'ni, ushbu tushuncha ostida barqaror o'sish, aholining munosib turmush tarzini ta'minlash hamda resurslardan maqbul va oqilona foydalanish nazarda tutilgan.

Boshqa bir muallif fikricha, barqaror mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish ko'p qirrali yondashuv bo'lib, u uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va farovonlikka ko'maklashish, shu bilan birga resurslardan mas'uliyatli foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan². Fikrimizcha, muallif ushbu ta'rif zamirida barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatlariga e'tibor qaratgan. Shunday bo'lsada, iqtisodiy mezonni ustuvor sanab, birinchi o'ringa qo'yimoqda. Bu jihatdan muallifning yondashuvi e'tiborli sanaladi. Chunki, ekologik masalani hal etish ham, aholi turmush darajasini oshirish ham iqtisodiy faoliyat zamirida hal etiladi. Boshqacha qilib aytganimizda esa, mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, resurslarning samarali bandligi asosida ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish talab etiladi.

Boshqa bir tadqiqotlarda ham mualliflar asosiy e'tiborini iqtisodiy mezonlarga qaratib barqaror rivojlanishga tavsif berib o'tgan hamda uning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, barqaror rivojlanish resurslardan foydalanish, investitsiya va texnologik rivojlanish yo'nalishlari hamda institutsional o'zgarishlar uyg'unlashtiriladigan, inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun mavjud va kelajakdagi salohiyatning qiymatini oshiradigan o'zgarish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Mamlakat uchun barqaror rivojlanishga o'tish faqat barcha mintaqalarning barqaror rivojlanishi ta'minlangandagina mumkin bo'ladi. Barqaror mintaqaviy rivojlanish strategiyasini shakllantirish murakkab vazifadir. Barqaror rivojlanishni aniqlash ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vaziyatni tizimli monitoring qilish va baholashni, shuningdek, ushbu jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va tashxislashni talab qiladi³. Fikrimizcha, mualliflar yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy mezon, xususan investitsiyalarga hamda texnologik o'zgarishlarga ustuvorlik qaratgan. Shu bilan birga, mintaqalarning barqaror rivojlanishi mamlakat barqarorligining mezoni ekanligini keltirib o'tilmoqda. Shunday bo'lsada, investitsiya hamda texnologiyalar o'zgarishlarini nafaqat insonlar turmush tarzi, balki ekologik nuqtai nazaridan ham tavsiflashga urg'u berish zarur. Chunki, bugungi kunga kelib kishilarning munosib turmush tarzi ekologik masalalarning birlamchi ehtiyoji ekanligi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi kabi mintaqa barqaror rivojlanishini iqtisodiy mezoniga ustuvorlik qaratilgan ta'riflarni keltirib o'tamiz. Ya'ni, iqtisodiy barqarorlik uzoq muddatda eng

¹ Горяная И.В. Особенности и факторы устойчивого развития региональных систем // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. - 2013. - No7 [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.online-science.ru/m/products/economi_science/gid917/pg12/

² Мустафаев Б.Р. Стратегик режалаштиришнинг назарий асослари: минтақавий иқтисодийта барқарор ўсиш катализатори // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Iyul, 3-son, 2023. 219-229 B.

³ Теоретические концепции устойчивого развития региона // <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2019/04/206.pdf>.

muhim tashqi omillarni hisobga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shish uchun barqaror sharoitlarni ta’minlaydigan iqtisodiy resurslarning muvozanatli holati. Shuningdek, barqarorlik esa dinamikani hisobga olgan holda, uning muvozanatini shakllantiruvchi iqtisodiy tizim elementlarining barcha xususiyatlarini noyob sintezi, shu bilan birga, hozirgi va kelajakda o‘zini rivojlantirish hamda tashkil etish imkoniyatlari¹. Fikrimizcha, muallif mazkur xulosaviy fikrlar orqali barqaror rivojlanishning iqtisodiy jihatlariga e’tibor bergan. Shu o‘rinda, iqtisodiy mezon bo‘yicha barqaror rivojlanish borasida gapirilganda uning soha hamda tarmoqlarini ham tavsiflashimiz zarur. Chunki, iqtisodiyotning barqarorligi ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish faoliyati mezoni hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, barqaror rivojlanish borasida gapirganimizda aholi turmush darajasiga ham e’tibor qaratishimiz zarur.

Jumladan, mintaqa barqaror rivojlanishini aholi turmush darajasi bilan bevosita bog‘lagan izlanishlardan yana biri mualliflari fikricha, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini tizimli va sifatli o‘zgarish tarzida tushunadilar va bu moliyaviy, moddiy va boshqa oqimlarni optimallashtirish orqali mintaqa barqarorligini mustahkamlashni ta’minlaydi hamda aholisi hayot darajasi va sifati oshishi bilan belgilanadi². Fikrimizcha, ushbu tavsifda asosiy e’tibor ijtimoiy jihatlariga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy masalalar to‘liq ochib berilmagan. Vaholanki, mintaqa barqaror rivojlanishining zamirida ekologik mezonlar manba sifatida, iqtisodiy mezonlar esa harakatlantiruvchi kuch sifatida ko‘rilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bois, mualliflar fikrini bir taraflama ustunlikdagi, natijaviy jihatlar, ya’ni ijtimoiy xususiyatlarni o‘z ichiga olgan qarash deb tavsiflaymiz.

Yuqoridagi ta’riflarga qo‘shimcha ravishda mintaqa barqaror rivojlanishini dastlabki tavsifi bo‘yicha keltirilgan ta’riflar ham mavjud. Jumladan, mintaqalarni barqaror rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar balki, innovatsion omillar bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Jumladan, bugungi kunda innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birgalikda uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi³. Fikrimizcha, ushbu ta’rifda muallif mintaqa barqaror rivojlanishiga samaradorlik mezoni, innovatsion faoliyat nuqtai nazaridan yondashgan. Ya’ni, samaradorlik mintaqada barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, innovatsiya omilgina emas, ishchi-kuchi malaka ko‘nikmasidagi o‘zgarishlar ham samaradorlikka bevosita ta’sir qiluvchi omil sanaladi. Shu bois, innovatsiya va ishchi kuchi malakasini uyg‘unlikda barqaror rivojlanish bilan tavsiflashimiz maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshqa bir manbada keltirilgan fikrga ko‘ra, barqaror rivojlanishni jamiyatning barcha sohalarini uzoq muddatli, muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan ijobiy

¹ Непарко М. В. Об устойчивости развития предприятий машиностроительного комплекса // Экономический журнал. 2012. № 26. С. 104–110.

² Лукинова О.А., Писаренко Н.Д. Выбор приоритетных вариантов инновационного устойчивого развития региона с помощью метода принятия управленческих решений // Инновации и инвестиции. 2018. №3. С.6.11.

³ Шарапова Н.К. Минтақани барқарор ривожлантиришга бағишланган назариялар эволюцияси // “Yangi O‘zbekiston Iqtisodiyoti” jurnali 4-son 2025-yil. 110-115-б.

o'zgarishlar jarayoni sifatida tushunish kerak, bu hozirgi va kelajak avlodlar uchun sifatli hayot uchun zarur bo'lgan resurslarning takrorlanishini ta'minlashga qaratilgan¹. Shuningdek, muallif barqaror rivojlanish bilan bog'liq tadqiqotlarni yirik ikki guruhga tasniflagan. Jumladan, birinchi guruh barqaror rivojlanishga ekologik muvozanatni saqlash nuqtai nazaridan yondashuv. Ikkinchi guruh esa, barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarini baholashga asoslangan, deya ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, bu tasniflash mintaqa barqaror rivojlanishi tushunchasining mohiyati bilan emas, tadrijiy rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq. Ushbu tushuncha, dastlab ekologik masalalarga qaratilgan bo'lib, o'tgan asrning 90 yillaridan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy masalalar ham kiritilgan. Bu borada, mualliflarning tasniflash yondashuvi tushunchaga berilgan tavsifning o'zgarishlariga mos keladi.

Boshqa bir ta'rifda ham samaradorlik hamda innovatsiyalarga ustuvorlik qaratilgan². Shuningdek, barqaror mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish chiqindilar va atrof muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun resurslardan foydalanishni optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, muallif mazkur ta'rif bilan barqaror rivojlanishning har uchala jihatlarini ham qamrab olgan. Ya'ni, iqtisodiy mezon sifatida o'sish, ekologik mezon sifatida atrof muhitga chiqindilar ta'sirini qisqartirish hamda ijtimoiy mezon zahirida tengsizlik masalasi qamrab olingan. Lekin, ushbu mezonlar tarkibini nisbatan tor doirada tavsiflamoqda. Jumladan, iqtisodiy mezon birgina o'sish ko'rsatkichi bilan emas, balki resurslar samarali bandligini, hududlararo integratsiyani, soha hamda tarmoqlarning muvozanatini ham o'z ichiga oladi. Shu bois ta'rifda muallif iqtisodiy o'sish emas, balki asosiy ko'rsatkichlar ijobiy o'zgarishini e'tiborga olishi lozim edi.

Boshqa bir muallif tadqiqotlarida mintaqa barqaror rivojlanishiga davomiylik nuqtai-nazaridan yondashilgan. Jumladan, barqaror rivojlanish mintaqaviy tizimining ayni vaqtda amal qilish va yangi sifatlarga ega bo'lish uzunligi va uzluksizligiga xavf soladigan, turli zararli omillarni bartaraf qilish va yuqori darajada cheklashga qaratilgan har xil turdagi murakkab, moslashuvchan ta'sirlar butun majmuini qo'llagan holda o'z tarkibi va xossalarning nisbatan o'zgaruvchan rivojlanishini bildiradi³. Fikrimizcha, muallifning fikricha keltirilgan ta'rif keng ko'lamli bo'lib, asosiy e'tiborni vaqt bo'yicha uzoq muddatga qaratilgan. Bir jihatdan barqaror rivojlanish vaqt bilan bog'liq bo'lib, bunda joriy iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda kelgusi avlodning cheklanmagan ehtiyojiga zarar keltirmaslik hamda atrof-muhit muvozanatiga ustuvorlik qaratish zarur.

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib, mintaqa barqaror rivojlanishi bo'yicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqamiz (1-jadval). Mintaqa barqaror rivojlanishi mintaqa va uning hududlarida resurslardan maqbul hamda oqilona foydalangan holda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan uzoq muddatli rivojlanish jarayonidir. Tor ma'noda esa,

¹ Антонова М.А. Теоретико-методологические основы изучения устойчивого развития регионов // Общество: Политика, Экономика, Право. №4, 2013. С. 113-119.

² Мустафаев Б.Р. Барқарор минтақавий ривожланиш учун стратегик режалаштириш // <https://sci-p.uz/index.php/editions/article/view/350>.

³ Кулматов А.А. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий тизимларнинг барқарор ривожланиш омиллари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2020, 2(134). 152-158-б.

mintaqa barqaror rivojlanishi mavjud resurslardan foydalanib iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

Mintaqa barqaror rivojlanishi bo‘yicha zamonaviy qarashlar¹

Mualliflar	Ta’rifning mazmun-mohiyati
<i>BMT</i>	Barqaror rivojlanish bu - shunday rivojlanishki, u hozirgi davr ehtiyojlarini qondiradi va shu bilan birga, kelgusi avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga solmaydi
<i>O.L.Kuznesov, P.G.Kuznesov, B.E.Bolshakov</i>	Barqaror rivojlanishni tabiat-jamiyat-inson tizimidagi tirik tabiatning global evolyutsiyasi qonunlari va insoniyatning tarixiy rivojlanish qonunlariga mos keladigan rivojlanish
<i>Bakirova A.M., Bulanov A.Yu., Gervasyev M.A.</i>	Mintaqaning barqaror muvozanatli rivojlanishi deganda, federalizm tamoyillariga asoslangan holda milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirishga hissa qo‘shadigan, shaxslar va jamiyat manfaatlarini uyg‘unligi asosida uzoq muddatda hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish uchun mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik quyi tizimlarining muvozanatli rivojlanishi
<i>Goryanaya I.V.</i>	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi” bu barqarorlikni, xususan, iqtisodiy tizimning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarining barqarorligi
<i>Antonova M.A.</i>	Barqaror rivojlanishni jamiyatning barcha sohalarini uzoq muddatli, muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan ijobiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida tushunish kerak, bu hozirgi va kelajak avlodlar uchun sifatli hayot uchun zarur bo‘lgan resurslarning takrorlanishini ta’minlash
<i>Mustafayev B.R.</i>	Barqaror mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish ko‘p qirrali yondashuv bo‘lib, u uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va farovonlikka ko‘maklashish, shu bilan birga resurslardan mas’uliyatli foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash
<i>Qulmatov A.A.</i>	barqaror rivojlanish mintaqaviy tizimining ayni vaqtda amal qilish va yangi sifatlarga ega bo‘lish uzunligi va uzluksizligiga xavf soladigan, turli zararli omillarni bartaraf qilish va yuqori darajada cheklashga qaratilgan har xil turdagi murakkab, moslashuvchan ta’sirlar butun majmuini qo‘llagan holda o‘z tarkibi va xossalariining nisbatan o‘zgaruvchan rivojlanishi
<i>Mualliflik yondashuvi</i>	Mintaqa barqaror rivojlanishi mintaq va uning hududlarida resurslardan maqbul hamda oqilona foydalangan holda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan uzoq muddatli rivojlanish

Yuqoridagi tavsiflar qatori, mualliflar mintaq barqaror rivojlanish xususiyatlari hamda shartlariga ham alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, mintaq rivojlanayotgan ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar majmuasi sifatida o‘rganishda asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- hududning tabiiy tizimlari ekologik muvozanatini ta’minlash;
- mintaqaviy ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning muvozanatli tuzilishi va optimal nisbatlariga erishish;
- aholining hayot darajasi va sifatini oshirish;

¹ Muallif ishlanmasi

- mintaqada ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning takrorlanishining muvozanati va mutanosibliği;
- mintaqada reproduktiv ekologik, ijtimoiy-madaniy, demografik va iqtisodiy jarayonlarning samaradorligi;
- mintaqada iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, demografik va iqtisodiy jarayonlarning moslashuvchanligi;
- mintaqada takrorlanish jarayonlarining maqsadga muvofiqligi, bu mintaqaning huquqiy hujjatlariga asoslanganligi¹.

Boshqa bir manbada mintaqaning ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida barqaror rivojlanish shartlariga quyidagilarni kiritgan:

- mintaqaning moliyaviy barqarorligi va mahalliy byudjetlar;
- innovatsiyalarning barqarorligi, innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash;
- investitsiya faoliyatining barqarorligi va mintaqaning innovatsion jozibadorligini oshirish;
- ijtimoiy-demografik sohada barqaror ijobiy dinamika;
- mintaqaning tabiiy resurs salohiyatini takrorlanish barqarorligi;
- mintaqani rivojlantirish uchun samarali tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishning barqarorligi².

Mintaqa barqaror rivojlanishning xususiyatlari va shartlari zamirida asosiy e'tibor uning uch jihati muvozanatiga qaratilmoqda. Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik mezonlarning mutanosibligini ta'minlash zarur. Bu o'rinda, ushbu mezonlarning biri-ikkinchisiz bajarilishi yohud ularning birini buzilishi mintaqa barqaror rivojlanish shartlarini buzilishiga olib keladi. Shu bois, mintaqalarni barqaror rivojlantirish tamoyillariga ham e'tibor qaratamiz.

Jumladan, mintaqaning barqaror ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rib chiqilgan: muvozanatli va kompleks tabiatni boshqarish tamoyilini saqlab qolish, tabiiy muhit obyektlarining xilma-xilligini saqlash; mintaqalarning rivojlanish darajasini tenglashtirish, ularning rivojlanishidagi tabaqalanishni kamaytirish bo'yicha faol siyosat yuritish; mintaqaning ekologik ijtimoiy-iqtisodiy tizimining muvozanatli, kompleks tuzilmasini yaratish maqsadida faol iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni rag'batlantirish³.

Shu bilan birga, barqaror iqtisodiy rivojlanish modeli bo'yicha izlanishlar olib borgan boshqa tadqiqotchilar jamiyatning qadriyatlar tizimlarini o'zgartirish, resurslarning kamayib ketishiga asoslangan iste'molchi jamiyatidan uzoqlashish

¹ Магомедова М.М., Курбанова У.А. И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого социально экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, №3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3-191-199.

² Цветцых А.В., Иваницкая В.В., Гринчишина К.Э., Гринчишина В.Э. Концепция устойчивого развития региона как эколого социально экономической системы // Менеджмент социальных и экономических систем. 2016. Т.4. №4. С. 45-51.

³ Магомедова М.М., Курбанова У.А. И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого социально экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, №3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3-191-199.

zarurligini ta'kidlaydilar. Jumladan, V.I.Barkxatov va O.V.Dyachenko tomonidan taklif qilingan innovatsion-ijodiy iqtisodiyotning strukturaviy-mantiqiy barqarorlik modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi: ekologik tozalik, energiya balansi va energiya samaradorligi, insonparvarlik, antroposentriklik va o'zini o'zi ta'minlash tamoyillari¹.

Boshqa bir tadqiqotchilar iqtisodiy tizim barqarorligini tadqiq etishning asosiy uslubiy tamoyillari sifatida quyidagilarni sanab o'tishgan:

– ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonida tabiiy resurslarning cheklanganligi to'g'risidagi qoidalarning anglanishi va qabul qilinishi tamoyili;

– mazkur jarayonda iqtisodiy va ekologik tarkibiy qismlarning o'zaro o'rinbosuvchanligini ko'zda tutadigan iqtisodiy rivojlanish barqarorligi asoslarining bir butunligi tamoyili;

– iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga o'tish muammolarining tadqiqotiga ko'p omilli yondashuv tamoyili;

– iqtisodiy rivojlanish barqarorligi muammolarining tadqiqotiga insonparvarlik yo'naltirilganligi tamoyili;

– ekotizimlar biologik unumdorligi va antropogen ta'sirlar hajmi majburiy muvofiqligini belgilaydigan ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish tamoyili;

– inson ishlab chiqarish faoliyatining nafaqat yaqin, balki uzoqlashgan oqibatlarini ham hisobga olishga qaratilganligi tamoyili².

Yuqoridagi mualliflar tadqiqotlarida mintaqa barqaror rivojlanishi masalasining tamoyillari mezonlariga muvofiqlikda ko'rib o'tilmoqda. Aslida mualliflar ushbu masalani o'rganish tamoyillari sifatida barqaror rivojlanish yechimining ilmiy bilishni o'z ichiga oluvchi tamoyillarga e'tibor qaratishi zarur edi. Jumladan, majmuaviylik, uzviylik, aniqlik kabi tasniflashi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, majmuaviylik tamoyilida mintaqadagi barqarorlik iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni qamrab olishi, hudud va sohalar rivojlanishini o'z ichiga olishi zarur. Uzviylik tamoyilida esa iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi o'z navbatida ijtimoiy muammolarni yechimiga, lekin ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu jihatdan iqtisodiy rivojlanish hisobiga ijtimoiy jarayonlarni barqarorlashtirish, ishlab chiqarish jarayonida esa resurslar sarfini optimallashtirish zarur. Aniqlik tamoyilida esa barqaror rivojlanish mintaqalarga oid ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bunda aniq kattaliklar qiymatlari hamda ularni o'zaro o'rganish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish zamirida samaradorlik masalalari ham ustuvor bo'lib, ularni maqbul va oqilona taqsimot hamda innovatsiyalar orqali hal etamiz (1.1.2-jadval).

Mintaqaning ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida barqaror rivojlanish qonuniyatlariga quyidagilar kiritilgan:

– mintaqada iste'mol qilinadigan tabiiy resurslar va ularni qayta ishlab chiqarish o'rtasida optimal muvozanatga erishish;

¹ Бархатов, В. И. Инновационно-креативная экономика как альтернативный путь деиндустриализации экономики России / В. И. Бархатов, О. В. Дьяченко // Журн. экон. теории. - 2013. - № 3. - С. 18-26.

² Каланов Б.З. Иктисодий тизим амал қилиш барқарорлигининг илмий-назарий асослари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2, 2015. 38-47-б.

- davlat tomonidan amalga oshiriladigan demografik siyosatning ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish;
- mintaqa aholisining innovatsion moslashuvini taʼminlash;
- mintaqa aholisining taʼlim, sogʻliqni saqlash va madaniyat darajasini oshirish;
- tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun iqtisodiy ragʻbatlantirishni yaratish;
- tabiiy muhit obyektlarining xilma-xilligini saqlash;
- mintaqada iqtisodiy mexanizmlarning shaffofligi va samaradorligini oshirishda hamda davlat institutlarini rivojlantirishda fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini taʼminlash;
- mintaqaning ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni joriy etishni faollashtirish¹.

Yuqoridagilar qatori mintaqa barqaror rivojlanishining asosiy shartlar ichki va tashqi tarzda tasniflanib, quyidagilarni oʻz ichiga olishi taʼkidlangan:

- tabiiy, iqlim, ekologik, shu jumladan relyef, tabiiy resurs salohiyati, tabiiy muhitning holati;
- ijtimoiy, shu jumladan demografik, ijtimoiy-madaniy salohiyat, kasallanish darajasi, hayot sifati;
- ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan taʼlim darajasi va sifati, ishchi kuchining malakasi, migratsiya, toʻlovga qodir talab;
- iqtisodiy, shu jumladan iqtisodiy va geografik joylashuv, iqtisodiyot tuzilishi, ishlab chiqarish, innovatsiya, investitsiya, byudjet salohiyati².

Mintaqa barqaror rivojlanishini qoʻllab-quvvatlovchi omillar va shartlarga quyidagilar kiritiladi:

- tashkiliy va boshqaruv, shu jumladan mintaqaviy va shahar boshqaruvining tashkiliy tuzilmalarining rivojlanish darajasi, mintaqadagi boshqaruv sifati;
- institutsional, shu jumladan monopolizatsiya darajasi, mintaqadagi raqobat darajasi, sud-huquq tizimining holati, biznesning tashkiliy va huquqiy shakllarining xilma-xilligi;
- mintaqaviy va shahar moliyasining holati;
- mintaqaviy va shahar siyosati³.

IHTT (OECD) tavsiyalariga koʻra, barqaror rivojlanishning miqdor va sifat oʻzgarishlari, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, boshqa tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat soha va yoʻnalishlari, aholi turmush sifatining dinamik rivojlanishi nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Umuman, mintaqaning barqaror rivojlanishi darajasi qator tabiiy-ekologik, siyosiy, jamoaviy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsifdagi omillar guruhi oʻzaro taʼsiri bilan

¹ Пономарев А.А. Система устойчивого развития региона // Вестник ДонНУ. Серия В. Экономика и право. 2019. №3. С.181-189.

² Магомедова М.М., Курбанова У.А. И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого-социально-экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, №3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3-191-199.

³ Алферова Т.В. Устойчивое развитие региона: подходы к отбору показателей оценки // Вестник Пермского университета. Экономика. 2020. Т.15. №4. С.494-509. DOI:10.17072/1994-9960-2020-4-494-511.

belgilanadi¹. Shu bilan birga, muallif mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish darajasi omillarini tashqi hamda ichki guruhlariga bo‘lib o‘rgangan. Tashqi omillar qatoriga siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, texnologik va mintaqa amal qilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tashqi ta’sirlar kiritilgan. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimi barqarorligining ichki omillariga mintaqa salohiyatini belgilaydigan resurslar, mintaqaning rivojlanish jarayoniga boshqaruvchilik ta’sirini ko‘rsatish imkoniyatini belgilaydigan regulyatsion guruhlar sanab o‘tilgan. Bizning fikrimizcha, muallif mintaqa iqtisodiy tizimi barqarorligi omillarini zamonaviy qarashlarga muvofiq tasniflagan. Shunday bo‘lsada, tashqi omillar zahirida barqaror rivojlanishning ustuvor omili sifatida geografik omillarni ham kiritishimiz zarur. Ichki omillar odatda mintaqa ixtisoslashuvini belgilash bilan birga, barqaror rivojlanish davomiyligiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqotlarda mintaqa barqaror rivojlanish omillarini ikki guruhga bo‘lib o‘rganishgan. Ya’ni, birinchi guruhga yer, mehnat, kapital, yetkazib beruvchilar, iste’molchilarning joylashuvi va infratuzilma kabi ishlab chiqarish omillari, shuningdek, soliqlar, iqtisodiy tizimlar, subsidiyalar va davlat yordam dasturlari kabi hukumat tomonidan belgilanadigan omillar kiritilgan. Ikkinchi guruhga esa, siyosiy muhitning barqarorligi, ijtimoiy muhit, mintaqaviy iqtisodiy kompleksning tuzilishi, ta’lim darajasi va sifati, mintaqada universitetlar, texnik markazlar va tadqiqot tashkilotlarining mavjudligi, iqtisodiy va soliq konsaltingining rivojlanish darajasi va aholining hayot sifati kiritilgan².

Shu bilan birga, boshqa bir tadqiqotlarda mintaqaning barqaror muvozanatli rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi qator omillarni ta’kidlash joiz:

- 1) tabiiy va ekologik omillar guruhi;
- 2) ijtimoiy-siyosiy omillar guruhi;
- 3) iqtisodiy omillar guruhi;
- 4) ijtimoiy omillar guruhi³.

Birinchi guruh - tabiiy va ekologik omillar guruhi - mintaqaning tarmoq ixtisoslashuvini va resurslarning hududiy taqsimlanishini, shuningdek, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan xarajatlar darajasini ifodalaydi. Ikkinchi guruh - ijtimoiy-siyosiy omillar - mintaqaning barqaror muvozanatli rivojlanishi bo‘yicha samarali qarorlar qabul qilinishini ta’minlash uchun tadbirkorlar, xodimlar va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazarda tutadi. Iqtisodiy omillar mintaqaning sanoat ixtisoslashuvini aniqlash bilan tavsiflanadi. Bu mintaqalararo munosabatlarga, innovatsiyalarni joriy etish va investisiyalarni jalb qilish imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Barqaror, muvozanatli mintaqaviy rivojlanishning to‘rtinchi guruhi ijtimoiy bo‘lib, u ijtimoiy omillar guruhini belgilaydi. Bu omillar

¹ Кулматов А.А. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий тизимларнинг барқарор ривожланиш омиллари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2020, 2(134). 152-158-б.

² Васильева Л.П. Методологические аспекты управления сбалансированным развитием региональной социально-экономической системы // Бизнес. Образование. Право. 2014. N1 (26). С. 143-148.

³ Kuznetsova M.N. Obespechenie ustoychivogo sbalansirovannogo razvitiya regiona na osnove povysheniya kachestva kapitala. SPb., 2014.

guruhi bandlik shakllari va daromadlariga ta'sir qiladi, mehnat unumdorligiga ta'sir qiladi va ishchi kuchini takror ishlab chiqarish salohiyatiga ta'sir qiladi¹.

Yuqoridagilar asosida mintaqa barqaror rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari, tamoyillari hamda omillarini yaxlit, bir butun holda qarashimiz zarur ekan (2-jadval).

2-jadval.

Mintaqalar barqaror rivojlanish xususiyatlari, tamoyil va shartlari²

Tamoyil va shartlar	Tamoyil va shartlarning mazmun-mohiyati
<i>Xususiyatlari</i>	hududlar atrof-muhiti hamda ekologik muvozanati; aholi hayot darajasi va sifati; samarali demografik va ijtimoiy siyosat yuritilishi; iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar bog'liqligi; me'yoriy-huquqiy hujjatlarning zamonaviyligi va talablarga mosligi
<i>Shartlari</i>	investitsion jozibadorlik va barqarorlik; moliyaviy barqarorlik; ijtimoiy barqarorlik; innovatsion barqarorlik va jozibadorlik
<i>Tamoyillari</i>	ekologik barqarorlik; energiya balansi va energiya samaradorligi; insonparvarlik va ijtimoiy tenglik; soha va tarmoqlarning muvozanatligi; iqtisodiy va ijtimoiy mutanosiblik; bir butunlik va yaxlitlik; majmuaviylik; uzviylik; aniqlik
<i>Omillari</i>	tashqi omillar: siyosiy-huquqiy; texnologik; geografik; tabiiy-ekologik ichki omillar: ishchi kuchi; mintaqada mavjud xom ashyo resurslar; mintaq va uning hududlaridagi tabiiy resurslar; investitsiya

Shunday bo'lsada, mintaqalarni rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarda muammo va kamchiliklar bo'yicha fikrlar ham keltirib o'tilgan. Jumladan, mintaqa barqaror rivojlanishining mavjud muammo hamda imkoniyatlari bilan bog'liq tadqiqotlarda bir qator mezonlar sanab o'tilgan. Jumladan, muammolar sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: resurslarning kamayishi; iqlim o'zgarishi; tez sur'atlardagi urbanizatsiya; qashshoqlik va tengsizlik; biologik xilma-xillikning yo'qolishi; energiyaga o'tish; boshqaruv va siyosiy to'siqlar. Imkoniyatlari sifatida esa quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: yashil texnologiya va imkoniyatlar; aylanma iqtisod; barqaror turizm; ijtimoiy tadbirkorlik; barqaror infratuzilma rivojlanishi; ekotizimni tiklash; yashil moliya va investitsiyalar; hamjamiyat ishtiroki³.

XULOSA VA TAKLIFLAR

mintaqa rivojlanishi, uning iqtisodiy mezonlarini ijobiy o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat zahirida tovar hamda xizmatlar ko'lamini oshirish yotadi. Bu jarayon esa, bevosita ishlab chiqarish resurslari sarfini talab qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohaning rivojlanishi uchun esa aholi turmush darajasini oshirishga e'tibor qaratishimiz zarur. Buning zahirida daromadlarini oshirish talab qilinadi. Ushbu jarayon ham bevosita ishlab chiqarishni kengaytirish, qo'shimcha ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini rivojlantirish, ularga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish

¹ Орлов Р.А. Факторы и условия, оказывающие влияние на устойчивое сбалансированное развитие региона //Гуманитарные науки. Прикладные аспекты экономики и управления народным хозяйством. 2015. С. 122-129. DOI: 10.20310/1810-0201-2015-20-11(151)-122-129.

² Muallif ishlanmasi

³ Мустафаев Б.Р. Стратегик режалаштиришнинг назарий асослари: минтақавий иқтисодийда барқарор ўсиш катализатори // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Iyul, 3-son, 2023. 219-229 B.

hisobiga amalga oshiriladi. Bir soʻz bilan ifodalaganimizda, mintaqalar barqaror rivojlanishini taʼminlashda uch jihatning, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarning bir butun yaxlit mutanosibligiga eʼtibor qaratishimiz zarur. Shu bois, mintaqa iqtisodiyotining asosiy boʻgʻini sanalgan sanoat sohasini barqaror rivojlantirishga ustuvorlik qaratamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti -prezident.uz
3. Грязнова А.Г., Федотова М.А. Финансы. - Москва: Юрайт, 2022.
4. Бочаров В.В. Финансовый менеджмент. - Санкт-Петербург: Питер, 2021.
5. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. - McGraw-Hill, 2020.
6. UNIDO. Investment and Leasing Development Report. - Vienna, 2022.
7. Вдовин С.М., Гуськова Н.Д., Неретина Е.А., Иванова И.А. Прогнозирование устойчивости развития региона на основе экономико-математического моделирования // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. №9, 2016. С. 8-27.
8. Xolmatov S.X. Barqaror rivojlanish indikatorlari va qishloq xoʻjaligini barqaror rivojlantirish tushunchalari tahlili // https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4*.pdf
9. Силова Е.С. К проблеме устойчивого развития региона // Вестник Челябинского государственного университета. 2017. № 5 (401). Экономические науки. Вып. 57. С. 7-14.
10. Ибрагимова З.А. Фундаментальные принципы устойчивого развития региона // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2024. Вып. 1. С.99-108.
11. Горячая И.В. Особенности и факторы устойчивого развития региональных систем // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. - 2013. - No7 [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.online-science.ru/m/products/economi_science/gid917/pg12/
12. Mustafayev B.R. Strategik rejalashtirishning nazariy asoslari: mintaqaviy iqtisodiyotda barqaror oʻsish katalizatori // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Iyul, 3-son, 2023. 219-229 B.
13. Mamadiyarov Z. et al. An Intelligent Semantic Orientation Identification Framework on Economic Text Using Q-Neutrosophic Soft Matrix under Interval-Valued for Financial Sentiment Analysis //International Journal of Neutrosophic Science (IJNS). - 2026. - Т. 27. - №. 2.
14. Эргашходжаева Ш., Хакимов З. Тошкент вилояти имижини яратиш асосида инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш //хозяйство. - 2011. - №. 6. - С. 78.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**